



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI MIGRATSIYA AGENTLIGI
B U Y R U Q

2 mart 2025 yil.

53-SHT-son

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Migratsiya agentligida tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlarini tartibga solish
va davlat xaridlari bo‘yicha mas’ul xodim biriktirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 12-yanvarda PQ-81-son qarori talablariga muvofiq,

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida korrupsion holatlar yuzaga kelishi va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, tashkil etiladigan davlat xaridlarini o‘tkazish jarayonlarini ochiqlik va shaffoflik prinsiplariga muvofiq amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida:

Agentlik tomonidan xarid qilinadigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) eng yaxshi takliflarni tanlash va tender xarid qilish tartib-taomillari asosida (vositasida) davlat xaridlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xarid komissiyasining asosiy vazifasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligining markaziy apparati va hududiy filiallari uchun markazlashgan xaridlarni ko‘rib chiqish, xolis baholash hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali g‘olibni tanlashdan iborat.

3. Agentlikning boshqarma va bo'lim boshliqlari:

tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish bo'yicha bildirgi (talabnoma) tayyorlashda o'z oldida turgan vazifalarni hal etishni ta'minlaydigan haqiqiy talablarni va ehtiyojlarni samarali qanoatlantirish uchun davlat xaridlarini o'tkazishning maqsadga muvofiqligi va zarurligi, tanlashning iste'mol xususiyatlari (tavsifi), sifat ko'rsatkichlari va qiymatining asoslanganligi hisobga olinganligi uchun mas'ulligi, shuningdek tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish bo'yicha bildirgi (talabnoma) Komplayens va ichki nazorat, Moddiy-texnik ta'minlash hamda Moliya-iqtisod bo'limi bilan kelishishlari shartligi belgilab qo'yilsin;

Kompyuter jihozlari, hisoblash va audio-video texnikasi, axborot texnologiyasi va kerakli ashyolarni sotib olish bilan bog'liq barcha tovar va xizmatlar Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi (AKT) bilan kelishgan holda sotib olinishi inobatga olinsin;

tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish bo'yicha bildirgi (talabnoma) taxminiy talablardan kelib chiqib, ularning alohida tavsiflarini ko'rsatgan holda kelgusi yil uchun davlat xaridlarining yillik reja-jadvallarini ishlab chiqish uchun joriy yilning 1-martiga qadar va kelgusi chorak uchun davlat xaridlarining choraklik reja-jadvallari ishlab chiqish uchun joriy chorak oxirgi oyining 15-sanasiga qadar davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha takliflarni tegishli direktor o'rinbosarlari bilan kelishgan holda taqdim etilishi;

reja-jadvallarda keltirilmagan holatlarda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish bo'yicha bildirgi (talabnoma) Agentlik rahbariyati ruxsati bilan taqdim etilishi belgilab qo'yilsin.

4. Davlat xaridlari bo'yicha mas'ul etib Xorijda ishlash istagida bo'lgan fuqarolarning hisobini yuritish boshqarmasi Tanlovlarni tashkil etish bo'limining yetakchi mutaxassisi **Eshmurodov Mirjalol Raxmonqul o'g'li** tayinlansin.

Davlat xaridlarini amalga oshirish yuzasidan biriktirilgan xodim O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunning 6-moddasiga muvofiq kasbiy mahoratga ega bo'lish maqsadida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish uchun o'rnatilgan tartibda malaka oshirishi majburiy ekanligi belgilab qo'yilsin.

5. Davlat xaridlari bo'yicha mas'ul M.Eshmurodov:

boshqarma va bo'limlar tomonidan taqdim etilgan bildirgi (talabnoma)lar asosida Agentlikning yillik va choraklik reja-jadvallarini "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunda belgilangan muddatlarga qadar maxsus axborot portaliga joylashtirilishi;

qonunchilikka muvofiq to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar tuzilgan kundan e'tiboran 3 (uch) ish kunida davlat xaridlari portaliga joylashtirilishini;

summasi bir shartnoma bo'yicha BHMning 25 (yigirma besh) baravarigacha tanlash xarid komissiyasining ishtirokisiz o'tkazilishi mumkin, biroq bir moliya yilida BHMning 500 (besh yuz) baravaridan ko'p bo'lmasligini ta'minlansin. Bunda, tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtirmasdan, ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo'li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) potensial yetkazib beruvchilaridan narxlarni so'rash yo'li bilan aniqlanishi;

elektron do'konda ishlar (xizmatlar) uchun summasi bir shartnoma bo'yicha BHMning 50 (ellik) baravaridan oshmaydigan, biroq aynan bir turdagi ishlar va xizmatlar uchun bir moliya yilida BHMning 500 (besh yuz) baravaridan oshmasligi; tovarlar uchun summasi bir shartnoma bo'yicha BHMning 2 500 (ikki ming besh yuz) baravarigacha, biroq aynan bir turdagi tovar uchun bir moliya yilida BHMning 10 000 (o'n ming) baravaridan ko'p bo'lmasligi;

auksionda tovarlar uchun summasi bir shartnoma bo'yicha BHMning 6 000 (olti ming) baravaridan ko'p bo'lmasligi;

eng yaxshi takliflarni tanlashda tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun summasi bir shartnoma bo'yicha BHMning 6 000 (olti ming) baravaridan ko'p bo'lmasligi;

tenderda tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun summasi bir shartnoma bo'yicha BHMning 6 000 (olti ming) baravaridan yuqorisi bo'lishi belgilab qo'yilsin.

6. Komplayens va ichki nazorat bo'limi (S.Mamashakirov) Agentlik tomonidan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga va davlat xaridlariga oid boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirilishini ta'minlasin.

7. Moliya-iqtisod bo'limi (J.Tashmatov) davlat xaridlari orqali UZASBO dasturiga kelib tushgan shartnomalar uchun tegishli xodimlarga ishonchnomalar berish choralarini ko'rsin.

8. Moddiy-texnik ta'minlash bo'limi (R.Musadjanov) davlat xaridlari natijasida yetkazib berilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) miqdori, tavsifi va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha shartnomaga muvofiqligi tekshirib qabul qilinishi va kamchiliklar aniqlangan taqdirda, darhol Agentlik rahbariyatiga ma'lumot berilishini ta'minlasin.

9. Davlat xaridlari bo'yicha ma'sul xodim (M.Eshmurodov) doimiy ravishda shartnomalar monitoringini olib borsin hamda bajarilmayotgan shartnomalarni o'rnatilgan tartibda bekor qilish uchun Agentlik rahbariyatiga bildirgi kiritib borilishini ta'minlasin.

10. Agentlikning 2024-yil 4-iyundagi 146-k-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

11. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor



B. Musaev